TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

95 yilligiga bag'ishlanadi

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI: GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI” FORUMI

“MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI”

Ilmiy elektron jurnal

(1-maxsus son)

· Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o‘sish;
· Moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlik;
· Inson kapitali va mehnat bozori transformatsiyasi;
· Biznes va turizmni rivojlantirish;
· Yashil iqtisodiyot va ekologik baqarorlik;
· Xalqaro savdo va xalqaro integratsiya.

TOSHKENT–2026

UO‘K: 339.97(575.1)(06)
KBK: 65.9(5O')-1
B 71

“Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi zamonaviy tendensiyalar” mavzusidagi I ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Ilm-ma’rifat” nashriyoti, 2026. – 410 b.

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plami “O‘zbekiston–2030” strategiyasi: global va milliy iqtisodiyot trendlari forumi doirasida tayyorlangan bo‘lib, unda global iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

To‘plamda makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o‘sish, moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik, inson kapitalini rivojlantirish va mehnat bozori transformatsiyasi, tadbirkorlik va turizm, yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik, xalqaro savdo hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar jamlangan.

Ilmiy maqolalarda global iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va zamonaviy tendensiyalar sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta’minlash yuzasidan ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

To‘plam iqtisodiyot sohasidagi olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar, davlat boshqaruvi organlari mutaxassislari, tadbirkorlar hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN: 978-9910-4522-0-8

© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2026-yil.

Mas'ul muharrir:
G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir:
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Sahifalovchi va dizayner:
Oloviddin Sobir o‘g‘li

Tahririyat Kengashi raisi:

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O‘zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.
Rafikov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)
Xeynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA SUN’IY INTELLEKT VA INSON KAPITALI TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIY KO‘NIKMALAR INQIROZI VA YANGI KOMPETENSIYALAR SHAKLLANISHINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI 12
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 20
Xalikov Ulug‘bek Rustamovich

UMUMMILLIY DASTURLARNING DEMOGRAFIK JIHATLARI INSON KAPITALI, HAYOT SIFATI VA YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHI 26
Durbek Ahmedov

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIY TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI DETERMINANTLARI: FINTECH VA INSON KAPITALINING O‘ZARO TA’SIRI 31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

OLIY TA’LIM MUASSASALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 40
Rustamov Davron Rustamovich

INDUSTRIAL STRUCTURE AND STRUCTURAL CONSTRAINTS ON INDUSTRIAL UPGRADING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA 46
Sung Tae Kyun

INNOVATIVE BUSINESS MODELS FOR SUSTAINABLE TOURISM 54
ABDUL HARIS

O‘ZBEKISTONDA UY XO‘JALIKLARI FAROVONLIGI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TUZILMAVIY TENGLAMALAR MODELI (SEM) ORQALI O‘LCHASHNING METODOLOGIK JIHATLARI 60
Berkinov Bozorboy

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH 66
Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TIJORATLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI 74
Mahmudova Muhlisa Qadirjon qizi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA ISH BERUVCHILAR BILAN HAMKORLIK MODELINI TAKOMILLASHTIRISH 82
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi

RISK MENEJMENTI JARAYONI: MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 89
Djurayev Turabjon Ikramovich

O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA AMALIY MEXANIZMLARI 100
Radjabov Umurzak Ablakulovich

UNIVERSITET ILMIY-INNOVATSION EKOTIZIMI TRANSFORMATSIYASINI BOSHQARISH 107
Oqmullayev Ravshanjon Rahimjon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA TEXNOLOGIK MUSTAQILLIKNI TA’MINLASHDA DEEP-TECH STARTAPLAR ASOSIDA KRITIK TEXNOLOGIYALARNI MAHALLIYLASHTIRISH MODELINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 113
Qurbonov Sherzod Ismatilliyevich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI DAROMADLARINING HUDUDIY TABAQALANISHINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI 122
Irmatova Aziza Baxramovna, Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURISTIK HUDUDLARNING MARKETING STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 129
Adilova Zulfiya Djavdatovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MECHANISMS FOR ENSURING FINANCIAL SECURITY THROUGH THE IMPROVEMENT OF FINANCIAL REPORTING 134
Abdieva Nargiza Shukhratovna

DIRECTIONS FOR IMPROVING MARKETING STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN 143
Asatullaev Khurshid Sunatullaevich, Nasirkhodjaeva Dilafruz Sabitkhanovna, Abdullayeva Madina Kamilovna

YAIM TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH, HUDUDIY YALPI ICHKI MAHSULOT VA SANOAT MAHSULOTINING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI 150
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich

INTERSUBJECTIVE FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL IN HIGHER EDUCATION: ACADEMIC FREEDOM AS COMMUNICATIVE EQUILIBRIUM 157
Kudratova Umida, Abdullakhanova Gulbahor

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI SHAROITIDA INKLYUZIV VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHNING MAKROIQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 165
Asqarova Mavluda Turabovna

ОПЕРЕЖАЮЩИЙ КАДРОВЫЙ ЗАКАЗ ДЛЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: ДИАГНОСТИКА РАЗРЫВОВ И КОНТУР УПРАВЛЕНИЯ НАВЫКАМИ 170
Ахмедиева Алия Тохтаровна

FINANCING THE GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: CURRENT STATE, CHALLENGES, AND PROSPECTS 176
Abdurakhimova Dilora Karimovna

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING EKONOMETRIK TAHLILI 183
Norov Akmal Ruzimamatovich

YANGI O‘ZBEKISTONNI “YASHIL” IQTISODIYOTLI MAMLAKATGA AYLANTIRISH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR 189
Nosir Maxmudov

SECTORAL PASS-THROUGH, DILUTED AGGREGATES: A LOCAL PROJECTION ANALYSIS OF ADMINISTERED ENERGY PRICE SHOCKS IN UZBEKISTAN 194
Vikorjon Bakhriddinov

МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА: ФАКТОРЫ И ПРИОРИТЕТЫ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА 203
Абдуллаева Мавлюда Садыковна

WATER SCARCITY, GREEN ECONOMY TRANSITION, AND GREEN HYDROGEN PROSPECTS IN CENTRAL ASIA: A WATER–ENERGY NEXUS ASSESSMENT 210
Kasimov Makhamatjon, Kasimov Otabek

METHODOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCING INCLUSIVE ECONOMIC GROWTH THROUGH FOREIGN TRADE POTENTIAL 217
Rahimov Eshmurod Normuradovich

SPATIAL DIFFERENTIATION OF DEMOGRAPHIC POTENTIAL AND HUMAN CAPITAL ACROSS KAZAKHSTAN’S REGIONS 222
Nyussupova Gulnara, Gaibnazarova Zumrat Talatovna, Khassanova Gaukhar, Terechshenko Tatyana

IQTISODIY O‘SISH, ENERGIYA ISTE’MOLI VA KARBONAT ANGIDRID CHIQINDILARI O‘RTASIDAGI UZOQ MUDDATLI BOG‘LIQLIK: O‘ZBEKISTON MISOLIDA CHEGARAVIY TEST YONDASHUVI 233
Umarova Go‘zal G‘ayratovna

RAQAMLI MOLIYA XIZMATLARI VA IQTISODIY INKLYUZIYA: FINTECH SEKTORI FAOLLIGINING AHOLI MOLIYAVIY IMKONIYATLARIGA TA’SIRI “PROBIT/LOGIT MODELLARI ASOSIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA AHOLI MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASI O‘RTASIDAGI MUNOSABATNI BAHOLASH” 241
M.Q. Maxmudova

O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA RAQAMLI YETUKLIK DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASI 247
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

GLOBAL IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TRANSPORT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIYASI VA UNING MAKROIQTISODIY BARQAROR O‘SISHGA TA’SIRI 253
Jalolova Madina Shopo‘lat qizi

ЗЕЛЕНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ 259
Холикова Рухсора Санджаровна

ОСОБЕННОСТИ ЦИКЛА ПРЕДИКТИВНОГО ПЛАНИРОВАНИЯ В КОНТУРЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОВОГО КОМПЛЕКСА 267
Загребельская Милена Владимировна

TIJORAT BANKLARI QIMMATLI QOG‘OZLARINI CHAKANA INVESTORLAR O‘RTASIDA JOYLASHTIRISH IMKONIYATLARI 277
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o‘g‘li

SANOATDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ME’YORIY-HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI 284
Dexkanova Nargiza Sharifovna

MAHALLIY JAMOALARNI INFRATUZILMA AKTIVLARINI BOSHQARISH JARAYONIGA JALB ETISH: ISHTIROKCHILIK MODELLARI VA AMALIY TAJRIBA 290
Suleimanov Farrukh

TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIGA TA’SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH 298
Kusharov Zoxid Keldiyorovich

FISKAL XAVFLARNI BOSHQARISH BO‘YICHA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI 304
Choriyev Fazliddin Ishkuvatovich

BANK AKTIVLARI DAROMADLILIGIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY KO‘RSATKICHLAR TAHLILI VA PROGNOZI (AT ALOQABANK MISOLIDA) 310
Togayev Salim Sobirovich

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA BANK RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH 316
Norova Nozima Nabiyevna

INTELLEKTUAL MULK MAHSULOTLARINI MAKROIQTISODIY STATISTIKADA HISOBGA OLISHNING METODOLOGIK JIHATLARI 322
Sunnatov Muxtor Ne’matovich

O‘ZBEKISTONDA INFLYATSION TARGETLASH SAMARADORLIGI: PUL-KREDIT SHAROITLARI VA INFLYATSION BOSIMLARNING TRANSFORMATSIYASI 329
Abdullayev Habibullo Asadulla o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: QUYOSH VA SHAMOL ENERGETIKASINING IQTISODIY SAMARADORLIGI 334
Buronova Manzura Abdukadirovna

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH SHAROITIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 339
Olimov Maqsudjon Komiljon o‘g‘li

НОВЫЕ ПОДХОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ РЫНКА ТРУДА УЗБЕКИСТАНА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ 346
Амирджанова Ситора Суннат кизи

ENTREPRENEURIAL ENVIRONMENT OF THE TASHKENT REGION: BARRIERS, FACTORS AND GROWTH PROSPECTS 352
Shadmanova Madinakhon Omonulla qizi

GLOBAL OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK BARQARORLIK: YETAKCHI MAMLAKATLAR MODELLARI VA O‘ZBEKISTONDA ICHKI BOZOR MUVOZANATINI TA’MINLASH OMILLARI 356
Axmedova Nafisa Amirddin qizi

MEHNAT BOZORIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MIKRO VA MAKRO DARAJALARNING AHAMIYATI 362
Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЧИСЛЕННОСТИ ЗАНЯТЫХ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ МОДЕЛЕЙ КЛАССА ARIMA 369
Таирова Алия Тагировна

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И БАРЬЕРЫ КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ ИННОВАЦИЙ 375
Юдаков Александр Андреевич

YOSH UNIVERSITETLARNING JAHON REYTINGLARIDAGI YUKSALISHI: THE REYTING TRAYEKTORIYALARI VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI 383
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi

STOCK MARKET DEVELOPMENT AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT INDICATORS IN UZBEKISTAN: A DESCRIPTIVE ASSESSMENT 392
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli

YALPI ICHKI MAHSULOT VA IQTISODIY O‘SISHGA SANOAT TARKIBIY O‘ZGARISHLARINING TA’SIRINI TAHLIL QILISH 397
Kaxorova Anora Nusratovna

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ НЕОДНОРОДНОСТЬ КАК БАРЬЕР ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА 404
Турсунова Муниса Хужаёр кизи

МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН) 413
Турсунова Муниса Хужаёр кизи

“O‘ZBEKISTON–2030” STRATEGIYASI SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI MOLIYAVIY RAQOBATBARDOSHLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI MOLIYAVIY MENEJMENT NAZARIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 422
Vaisov Dilshod Ibodullayevich

BANDLIKDA GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINING NAZARIY ASOSLARI 428
Oxunova Oygul Usmonjon qizi

MEHNAT BOZORIDA GENDER TENGLIGI IQTISODIY O‘SISH OMILI SIFATIDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR 434
Okhunova Oygul Usmonjon qizi

ASSESSING THE LEVEL OF DIGITALIZATION OF INTERNAL QUALITY CONTROL PROCESSES IN UZBEK AUDIT FIRMS AND IMPROVING THE MONITORING MECHANISM 439
Bobonarova Kamola O‘ktamjon kizi

VOSITACHILIK MUNOSABATLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA STRATEGIK BOSHQARUV OBYEKTI SIFATIDA SHAKLLANISHI 445
Sabirov Ulug‘bek Sultonovich

TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH 451
Mirzayeva Matluba G‘aybulla qizi

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ АВИАКОМПАНИЙ И СТРАТЕГИИ ИХ ГИБРИДИЗАЦИИ НА РЫНКЕ ВОЗДУШНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА 456
Азимова Мохинур Нозимовна

TURIZMDA ELEKTRON MARKETING (E-MARKETING) VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI 461
To‘ychiyeva Nodira G‘ulom qizi

JIZZAX VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA STRATEGIK OMILLARI 466
Ergasheva Nafisa Baxridinovna

MECHANISMS OF SUPPORTING EXPORT ORIENTED SMALL BUSINESSES IN DIGITAL ECONOMY 471
Rakhimboeva Begoyim

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

EMPLOYMENT DYNAMICS AND LABOUR MARKET TRANSFORMATION IN THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: A SYSTEMATIC SYNTHESIS OF CONTESTED EVIDENCE, METHODOLOGICAL DIVERGENCE AND STRUCTURAL CONSTRAINT 477
Tulkinbek Bobojonov

МУЗЕЙНЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 486
Абдурашидова Нигора Алишеровна

DIGITAL TRANSFORMATION AND FINANCIAL PERFORMANCE OF STATE-OWNED ENTERPRISES: EVIDENCE AND POLICY PROSPECTS FROM UZBEKISTAN 493
Mavlonov Ozod Ulugbekovich

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH USULLARI 500
Muxamedova Sevara Abdullayevna

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARI 507
Muxamedova Sevara Abdullayevna

O‘ZBEKISTONDA HAVO TRANSPORTINI LIBERALLASHTIRISH VA MINTAQAVIY AEROPORTLAR RIVOJLANISHI: “OCHIQ OSMON” REJIMI MISOLIDA 513
Azimova Mohinur Nozimovna

GLOBAL TRENDS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT AND THEIR IMPLICATIONS FOR YOUTH ENTREPRENEURSHIP: A COMPARATIVE ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE 520
Isakjanova Saboxat

TIJORAT BANKLARIDA AHOLIGA KO‘RSATILADIGAN XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 527
Rajabov Saidrasul Xalil o‘g‘li

INSON KAPITALI VA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI 533
Jumayeva Shaxnoza Qo‘shpenovna

INSON KAPITALI VA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI 538
Ziyavitdinova Shahodat Shamsitdinovna

MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH 543
Ashurova Zuxra Yusupovna

МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА 549
Шатохина Светлана Юрьевна

PROMOTING SUSTAINABLE GROWTH THROUGH STRENGTHENING EXPORT POTENTIAL IN THE NATIONAL ECONOMY 555
Berdivaliyeva Madina

O‘ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 559
Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi

РАЗВИТИЕ СКЛАДСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ: ДЕФИЦИТ МОЩНОСТЕЙ И ИНТЕГРАЦИЯ В МЕЖДУНАРОДНЫЕ ЦЕПИ ПОСТАВОК 565
Уктамбекова Маърифатхон Тургунмирза кизи

BUXORO VILOYATIDA TURIZM SEKTORINING IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK USULLAR ASOSIDA BAHOLASH 570
Kamolov Xudoyor Zoyirovich

IQTISODIYOTDA RAQOBAT MOHIYATI VA O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOG‘IDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH 578
Nomozov Qurbonali

KORXONALAR INVESTITSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING ROLINI OSHIRISH 583
Ziyayev Jamshidbek Xurshidbek o‘g‘li

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA BANK RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH

Norova Nozima Nabiyevna
TIFT universiteti dotsenti v.b. PhD
TIU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: n.norova@tift.uz

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida kredit, likvidlik va kapital risklarini boshqarish samaradorligi kompleks statistik ko‘rsatkichlar asosida baholangan. 2023-2026-yillar boshidagi rasmiy ma’lumotlar asosida muammoli kreditlar ulushi (NPL), kapital monandliligi (CAR), likvidlikni qoplash me’yori (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori (NSFR) dinamikasi tahlil qilindi. Natijalar bank tizimida kapital va likvidlik buferlari mustahkamlanganini, 2025-yildagi kredit riski kuchayishidan so‘ng 2026-yil boshida NPL ulushi 3 foizgacha pasayganini ko‘rsatadi. Risklarni boshqarishni takomillashtirish uchun “erta ogohlantirish – limit – stress-test - mitigatsiya - qayta monitoring” sikliga asoslangan integratsiyalashgan risk-monitoring modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: bank risklari, kredit riski, risk-monitoring.

Abstract: The article provides a comprehensive assessment of credit, liquidity and capital-risk management in Uzbekistan’s commercial banking sector using official prudential indicators. The dynamics of non-performing loans (NPL), capital adequacy ratio (CAR), liquidity coverage ratio (LCR) and net stable funding ratio (NSFR) are examined for 2023-2026. The results indicate stronger capital and liquidity buffers and an improvement in credit quality by early 2026. An integrated risk-monitoring framework based on early warning, limits, stress testing, mitigation and feedback monitoring is proposed.

Key words: banking risks, credit risk, risk monitoring.

Аннотация: В статье на основе официальных статистических показателей комплексно оценивается эффективность управления кредитным риском, риском ликвидности и риском достаточности капитала в коммерческих банках Узбекистана. Проанализирована динамика доли проблемных кредитов (NPL), коэффициента достаточности капитала (CAR), коэффициента покрытия ликвидности (LCR) и коэффициента чистого стабильного финансирования (NSFR) за 2023-2026 годы. Предложена интегрированная модель риск-мониторинга, объединяющая раннее предупреждение, лимитирование, стресс-тестирование, меры по снижению риска и повторный мониторинг.

Ключевые слова: банковские риски, кредитный риск, риск-мониторинг.

KIRISH

Bank faoliyatining barqarorligi risklarni o‘z vaqtida aniqlash, o‘lchash va boshqarish sifatiga bevosita bog‘liq. Kredit portfeli kengayishi, raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘lamining ortishi, bozor stavkalari va valyuta kurslaridagi o‘zgarishlar tijorat banklarida risklarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradi. Shu sababli bank risklarini alohida indikatorlar bo‘yicha emas, balki kredit sifati, kapital buferi, likvidlik zaxirasi va operatsion barqarorlikni birlashtiruvchi tizim sifatida monitoring qilish zarur (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, n.d.).

O‘zbekiston Markaziy bankining 2025-yil uchun Moliyaviy barqarorlik sharhiga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida bank tizimining jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti 18,3 foizni, CET1 14,7 foizni, LCR 208 foizni, NSFR 120 foizni tashkil etdi, muammoli kreditlar ulushi esa 3 foizgacha pasaydi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025). Ushbu ko‘rsatkichlar tizimning umumiy zararni yutish va likvidlik shoklariga bardoshlilik salohiyati mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Biroq mikroqarzlar segmentidagi qarz yuki, kiberxavflar, tashqi moliyaviy sharoitlarning keskinlashuvi va iqlim risklari alohida e’tibor talab etuvchi yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025). Maqolaning maqsadi O‘zbekiston tijorat banklarida asosiy bank risklarini boshqarish holatini 2023–2026-yillardagi rasmiy prudensial ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholash, risklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimlashtirish hamda amaliy risk-monitoring mexanizmini taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank risklarini boshqarish nazariyasida kredit riski qarz oluvchining majburiyatni bajarmaslik ehtimoli bilan, likvidlik riski bankning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish imkoniyati bilan, kapital riski esa kutilmagan zararlarni qoplash uchun yetarli bufer mavjudligi bilan bog‘lanadi. Basel Committee on Banking Supervision bank risklarini boshqarishda kapitalning sifati, likvidlik standartlari, risk-appetit, stress-test va korporativ boshqaruvning yagona tizim sifatida ishlashini ta’kidlaydi (Basel Committee on Banking Supervision, n.d.).

Xalqaro amaliyotda bankning moliyaviy barqarorligini faqat bitta ko‘rsatkich bilan baholash yetarli emas. NPL kredit portfeli sifatini, CAR zararlarni yutish kapital salohiyatini, LCR 30 kunlik likvidlik shoklariga, NSFR esa uzoqroq muddatli moliyalashtirish barqarorligiga chidamlilikni ifodalaydi. Mazkur indikatorlarni birgalikda ko‘rib chiqish kredit, kapital va likvidlik risklari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash imkonini beradi (Basel Committee on Banking Supervision, n.d.; International Monetary Fund, 2025).

O‘zbekiston Markaziy bankining moliyaviy barqarorlik materiallarida ham makro stress-testlar, qarz yuki ko‘rsatkichlari, kapital buferlari va likvidlik koeffitsiyentlari tizimli risklarni baholashning asosiy vositalari sifatida qo‘llanadi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025). Shu bois mazkur maqolada risk monitoringi “indikator – limit – stress – choralar – qayta baholash” mantiqiy zanjiri asosida talqin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023–2026-yillar boshidagi bank tizimi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlari tashkil etdi. Kredit riski NPL ulushi, kapital riski CAR, qisqa muddatli likvidlik riski LCR, barqaror moliyalashtirish riski esa NSFR orqali baholandi. Ko‘rsatkichlar turli iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgani sabab ular sun’iy ravishda bitta regressiya tenglamasiga kiritilmadi; aksincha, trend va qiyosiy-statistik tahlil orqali risk profili kompleks talqin qilindi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda 2023–2026-yillar bo‘yicha asosiy prudensial indikatorlar yagona jadvalga keltirildi. Ikkinchi bosqichda ko‘rsatkichlarning yillik o‘zgarishi va risk nuqtai nazaridan iqtisodiy mazmuni baholandi. Uchinchi bosqichda kredit, likvidlik, kapital, bozor, operatsion va konsentratsiya risklarini birlashtiruvchi risk-monitoring matritsasi hamda boshqaruv sikli ishlab chiqildi.

Metodologik yondashuvning muhim jihati shundaki, rasmiy ochiq ma’lumotlarda barcha risk turlari bo‘yicha bir xil chastotadagi bank-level qatorlar mavjud emas. Shu sababli maqoladagi xulosalar tizim darajasidagi prudensial ko‘rsatkichlarning kuzatilgan dinamikasini tavsiflaydi va alohida bank yoki muayyan boshqaruv choralarining qat’iy sababiy ta’sirini da’vo qilmaydi.


TAHLIL VA NATIJALAR

2023–2026-yillar boshidagi asosiy risk ko‘rsatkichlari bank tizimida kredit sifati, kapital va likvidlik bo‘yicha turlicha dinamika kuzatilganini ko‘rsatadi. NPL ulushi 2023-yildagi 3,6 foizdan 2024-yilda 3,5 foizga pasaygan, 2025-yilda 4,0 foizgacha ko‘tarilgan va 2026-yil boshida 3,0 foizgacha tushgan. Shu davrda CAR 17,8 foizdan 18,3 foizgacha oshgan. LCR 2024-yilda 164,8 foizgacha pasaygan bo‘lsa-da, keyinchalik 207,5 foizgacha tiklangan; NSFR esa 111,8–119,9 foiz oralig‘ida bo‘lib, 2026-yilda yuqorilagan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025; O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023; O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026) (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston bank tizimining asosiy risk ko‘rsatkichlari, %

Yil boshidagi holat	NPL	CAR	LCR	NSFR
2023	3.6	17.8	211.6	115.6
2024	3.5	17.5	164.8	111.8
2025	4.0	17.4	193.8	115.3
2026	3.0	18.3	207.5	119.9

Bank risklari tarkibida 2025-yilda kredit riski vaqtincha kuchayganini, ammo 2026-yil boshida kredit portfeli sifati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Kapital monandliligining 18,3 foizgacha oshishi zararlarni yutish buferini kuchaytirgan. LCR va NSFR ko‘rsatkichlarining me’yoriy minimumlardan yuqori shakllanishi likvidlik va barqaror moliyalashtirish bo‘yicha tizim darajasidagi xavfsizlik zaxirasi mavjudligini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. NPL va kapital monandliligi ko‘rsatkichlarining 2023–2026-yillardagi dinamikasi

Kredit riski va kapital buferi o‘rtasidagi muhim farqni ko‘rsatadi: NPL 2025-yilda ko‘tarilgan bo‘lsa-da, kapital monandliligi nisbatan barqaror saqlangan va 2026-yilda oshgan. Bu holat kapital buferi kredit sifati tebranishlarini qoplashda muhim amortizator vazifasini bajarishini ko‘rsatadi, biroq yuqori CAR kredit riskining sabablarini bartaraf etmaydi. Shu bois kredit portfeli monitoringi, erta ogohlantirish indikatorlari va rezervlash siyosati kapital ko‘rsatkichlari bilan parallel boshqarilishi kerak (2-jadval).

2-jadval. Risk ko‘rsatkichlari dinamikasining boshqaruv talqini

Ko‘rsatkich	2023→2026 o‘zgarishi	Risk talqini	Boshqaruv ustuvorligi
NPL	3,6% → 3,0%	Kredit riski pasaygan, biroq 2025-yilda 4,0% cho‘qqi kuzatilgan	EWS, segment va vintage tahlili, restrukturizatsiya sifati
CAR	17,8% → 18,3%	Kapital buferi mustahkamlangan	Risk-appetit va stress ssenariylar bilan kapital rejalashtirish
LCR	211,6% → 207,5%	Yuqori darajada, 2024-yilda vaqtincha pasayish bo‘lgan	HQLA sifati, 30 kunlik cash-flow stresslari
NSFR	115,6% → 119,9%	Barqaror moliyalashtirish yaxshilangan	Uzoq muddatli resurs bazasi va muddatlar tafovuti


Jadvaldan ko‘rinadiki, risk boshqaruvi faqat indikatorning me’yoriy talabdan yuqori yoki pastligini qayd etish bilan cheklanmasligi lozim. Ko‘rsatkichning trayektoriyasi, keskin o‘zgarish nuqtalari va risklarning o‘zaro uzatilish kanallari boshqaruv qarorining muhim qismi hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval. Tijorat banklari uchun integratsiyalashgan risk-monitoring matritsasi

Risk turi	Asosiy indikator	Erta ogohlantirish signali	Boshqaruv chorasi	Monitoring davriyligi
Kredit riski	NPL, Stage 2/3, PD, vintage	Kechikishlar, sektor konsentratsiyasi, qayta restrukturizatsiya	Limit, skoring, rezerv, workout	Haftalik/oylik
Likvidlik riski	LCR, NSFR, HQLA, gap	Yirik depozit chiqimi, HQLA kamayishi	Likvidlik buferi, contingency funding plan	Kunlik/haftalik
Kapital riski	CAR, CET1, RWA density	RWA tez o‘sishi, foyda pasayishi	Kapital reja, dividend cheklovi, RWA optimallashtirish	Oylik/choraklik
Bozor riski	FX gap, duration, VaR	Kurs/stavka volatiliteti	Hedging, stop-loss, limitlar	Kunlik
Operatsion/kiber risk	Incident, loss event, downtime	Incident chastotasi, zaifliklar	BCP/DR, MFA, SOC, root-cause	Real vaqt/oylik
Konsentratsiya riski	Top borrowers, sektor ulushi	Bir sektor/yirik qarzdor ulushi oshishi	Diversifikatsiya, limit va sindikatsiya	Oylik

abdullaevkhabibullo1994@gmail.com

Risk turlarini yagona monitoring konturiga birlashtirish taklif etiladi. Bunda har bir risk uchun o‘lchanadigan indikator, erta ogohlantirish signali, aniq boshqaruv chorasi va monitoring chastotasi belgilanadi. Mazkur yondashuv risklarni “hisobot davri yakunida aniqlash” modelidan “oldindan signal olish va tezkor qaror” modeliga o‘tkazadi (2-rasm).



2-rasm. Bank risklarini boshqarishning uzluksiz monitoring sikli

Taklif etilayotgan siklda riskni aniqlashdan keyin indikatorlar limit va risk-appetit bilan qiyoslanadi, so‘ng stress-test orqali salbiy ssenariylar baholanadi. Natijaga ko‘ra mitigatsiya chorasi belgilanib, keyingi monitoringda uning samarasi tekshiriladi. Shu tariqa risk monitoringi bir martalik nazorat emas, doimiy qayta kalibrlanadigan boshqaruv jarayoniga aylanadi.

Olingan natijalar bank tizimi barqarorligini baholashda kredit sifati, kapital va likvidlik ko‘rsatkichlarini birgalikda talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi. Basel III yondashuvi ham kapital va likvidlik buferlarini alohida normativlar emas, balki turli shoklarga qarshi bir-birini to‘ldiruvchi himoya qatlamlari sifatida ko‘radi (Basel Committee on Banking Supervision, n.d.). O‘zbekiston ma’lumotlarida 2024-yilda LCRning 164,8 foizgacha pasayishi likvidlik buferlari dinamikasini doimiy kuzatish zarurligini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2026-yilda 207,5 foizgacha tiklanishi tizim likvidligining mustahkamlanganini bildiradi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023; O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026).

Kredit riski bo‘yicha 2025-yilda NPL ulushining 4,0 foizgacha oshishi va 2026-yilda 3,0 foizgacha pasayishi risk ko‘rsatkichlarini faqat bir nuqtadagi qiymat bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025). Bank boshqaruvida portfelning sektor, mahsulot, hudud, vintage va qarz oluvchi segmentlari bo‘yicha dekompozitsiyasi zarur. Aks holda tizim bo‘yicha nisbatan qulay o‘rtacha ko‘rsatkich ayrim segmentlarda to‘planayotgan riskni yashirishi mumkin.

Likvidlik va kapital ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi ham risk yo‘q degani emas. Likvid aktivlarning sifati, ularning monetizatsiya tezligi, depozit bazasining konsentratsiyasi, valyuta tarkibi va muddatlar tafovuti alohida nazorat qilinishi kerak. Xuddi shuningdek, CARning yuqori bo‘lishi RWA sifati, kredit portfeli konsentratsiyasi yoki operatsion/kiber risklarning kuchayishini avtomatik ravishda bartaraf etmaydi. Shu sababli ushbu maqolada indikatorlar bilan birga stress-test, limitlar va erta ogohlantirish tizimini birlashtiruvchi boshqaruv modeli taklif etildi (4-jadval).

4-jadval. Bank risklarini kamaytirish bo‘yicha amaliy mexanizm

Muammo	Taklif etilayotgan yechim	Kutilayotgan ta’sir	Nazorat indikatori
NPLning segmentlarda to‘planishi	EWS + vintage + sektor konsentratsiyasi monitoringi	Muammoli kreditni erta aniqlash	Stage 2/3, 30+/90+ DPD
Yirik depozitga qaramlik	Depozit konsentratsiyasi limiti va stress ssenariysi	Likvidlik shokini yumshatish	LCR, top-20 deposit share
RWAning tez o‘sishi	Risk-appetitni kapital reja bilan bog‘lash	Kapital yetarliligini saqlash	CAR, CET1, RWA density
Kiberhodisalar	SOC, MFA, BCP/DR va incident root-cause	Operatsion uzilishlarni kamaytirish	Incident rate, downtime
Limit buzilishlari	Action-tracking reyestri va eskalatsiya SLA	Ijro intizomini oshirish	Open breaches, overdue actions

4-jadvaldagi mexanizmning ilmiy-amaliy farqi shundaki, u risk indikatorini aniqlashni boshqaruv qarori va ijro nazorati bilan yakunlaydi. Ya’ni indikator “qizil zona”ga kirganda faqat hisobot shakllanmaydi, balki mas’ul bo‘linma, choralar muddati va natija indikatori bo‘yicha action-tracking ishga tushiriladi.

Risklarni kompleks boshqarishda indikatorlar o‘rtasidagi uzatilish kanallarini ham hisobga olish muhim. Kredit portfeli sifati yomonlashganda rezervlarga ehtiyoj ortadi, bu esa foyda va kapital shakllanishiga bosim o‘tkazishi mumkin. Shu bilan birga, aktivlar sifati bo‘yicha salbiy kutilmalar depozitlar chiqimi yoki bozor moliyalashtirishining qimmatlashuvi orqali likvidlik riskini kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Demak, NPL, CAR, LCR va NSFRni alohida nazorat qilishdan tashqari, ularning birgalikdagi trayektoriyasini stress ssenariylari doirasida baholash bank risk-menejmentining muhim vazifasidir (Basel Committee on Banking Supervision, n.d.; International Monetary Fund, 2025).

Taklif etilayotgan modelning amaliy afzalligi risk-appetit, limitlar va action-tracking jarayonini bitta boshqaruv konturiga birlashtirishidadir. Masalan, kredit portfelining muayyan segmentida 30+ DPD yoki Stage 2 ulushi belgilangan chegaradan oshsa, signal faqat risk hisobotida qayd etilmaydi. U tegishli limitni qayta ko‘rib chiqish, yangi kreditlash mezonlarini kuchaytirish, qo‘shimcha rezervlash yoki workout choralarini boshlash uchun boshqaruv triggeriga aylanishi lozim. Bunda mas’ul bo‘linma, bajarish muddati va natijaviy indikator oldindan belgilanishi risk qarorlarining ijro intizomini oshiradi.

Stress-test jarayonida bazaviy, salbiy va keskin salbiy ssenariylarni ajratish maqsadga muvofiq. Kredit riski uchun qarz oluvchilar daromadining pasayishi va defolt ehtimolining oshishi; likvidlik riski uchun yirik depozitlar chiqimi va HQLA monetizatsiyasining cheklanishi; bozor riski uchun foiz stavkalari hamda valyuta kursining keskin o‘zgarishi kabi omillar birgalikda ko‘rib chiqilishi mumkin. Ssenariy natijalari kapital va likvidlik buferlari bilan qiyoslanganda bankning nafaqat joriy normativlarga rioya qilishi, balki salbiy sharoitda ham barqaror faoliyat yuritish salohiyati baholanadi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025; Basel Committee on Banking Supervision, n.d.).

Natijalarning amaliy qo‘llanishi bank kuzatuv kengashi va risk qo‘mitasi darajasida yagona risk-dashboard shakllantirishni nazarda tutadi. Dashboardda indikatorning joriy qiymati bilan birga limit, ogohlantirish chegarasi, trend, stress-test natijasi, mas’ul bo‘linma va ochiq choralar holati aks ettirilishi kerak. Natijada risk-monitoring retrospektiv hisobotdan oldindan ogohlantiruvchi va boshqaruv qarorlarini tezlashtiruvchi vositaga aylanadi. Ushbu yondashuv zamonaviy bank risk-menejmenti adabiyotlaridagi integratsiyalashgan qarashlar bilan hamohang. Saunders, Cornett va Erhemjamts moliyaviy institutlarda kredit, likvidlik, foiz stavkasi va bozor risklarini yagona risk–daromad doirasida boshqarish zarurligini asoslaydi (Saunders, 2021). Hull esa kredit, bozor, likvidlik, operatsion, model, iqlim va kiber risklarni stress-test hamda kapital rejalashtirish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi (Hull, 2023). Mazkur maqolada ushbu yondashuvlar O‘zbekiston bank tizimining prudensial indikatorlariga moslashtirilib, risk signali–qaror–ijro nazorati zanjiri bilan to‘ldirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi muallif tomonidan kredit, kapital va likvidlik risklarini rasmiy prudensial indikatorlarning ko‘p yillik dinamikasi asosida o‘zaro bog‘liq holda baholash hamda ularni operatsion, bozor va konsentratsiya risklari bilan yagona boshqaruv konturiga integratsiya qiluvchi “erta ogohlantirish → limit → stress-test → mitigatsiya → monitoring → qayta kalibrlash” modelining taklif etilganida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvning farqli jihati risk indikatorlarini mustaqil statistik ko‘rsatkich sifatida emas, balki risk-appetit, limitlar, stress-test natijalari va action-tracking mexanizmi bilan bog‘langan boshqaruv triggerlari sifatida talqin qilishdan iborat. Natijada risk-monitoring retrospektiv nazoratdan oldindan ogohlantiruvchi va ijro nazoratiga ulanadigan uzluksiz boshqaruv jarayoniga aylantiriladi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi ochiq ma’lumotlarda ayrim risklar bo‘yicha banklar kesimidagi uzoq va bir xil metodologiyada tuzilgan qatorlarning cheklanganidir. NPL, CAR, LCR va NSFR tizim darajasida mavjud bo‘lsa-da, kiberhodisalar, operatsion zararlar, yirik depozit konsentratsiyasi, sektor PD va ECL kabi ko‘rsatkichlar bank darajasida to‘liq ochiq emas. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda bank-level panel ma’lumotlari asosida risklar o‘rtasidagi uzatilish kanallarini fixed effects, dynamic panel va stress-test usullari bilan empirik baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari 2023–2026-yillarda O‘zbekiston bank tizimining kapital va likvidlik buferlari umumiy jihatdan barqaror saqlanganini, kredit riski esa davrlar kesimida tebranganini ko‘rsatdi. 2026-yil boshiga kelib NPL ulushining 3 foizgacha pasayishi, CARning 18,3 foizga, LCRning 207,5 foizga va NSFRning 119,9 foizga yetishi bank tizimining risklarni yutish salohiyati yaxshilanganini ko‘rsatadi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025; O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026). Shu bilan birga, risklarni faqat normativ koeffitsiyentlar asosida baholash yetarli emas; segment konsentratsiyasi, operatsion/kiber risklar, depozit bazasi barqarorligi va stress ssenariylari ham boshqaruv tizimiga kiritilishi zarur.

1. Banklarda kredit riski uchun NPL bilan bir qatorda Stage 2/3, PD, 30+/90+ DPD, vintage va sektor konsentratsiyasi ko‘rsatkichlarini majburiy erta ogohlantirish paneliga kiritish.

2. Likvidlik riskini LCR va NSFR bilan cheklamasdan, yirik depozitlar konsentratsiyasi, HQLA sifati va stress sharoitidagi cash-flow gap bilan birga monitoring qilish.

3. Kapital rejalashtirishni risk-appetit va stress-test natijalari bilan bog‘lab, RWA tez o‘sadigan segmentlar uchun differensial limitlar joriy etish.

4. Operatsion va kiber risklar bo‘yicha incident reyestri, root-cause tahlili, BCP/DR sinovlari va eskalatsiya SLA tizimini kuchaytirish.

5. Risk limitlari buzilganda action-tracking reyestrini joriy etib, har bir chora bo‘yicha mas’ul, muddat va yakuniy natija indikatorini belgilash.

6. Kelgusida bank-level panel ma’lumotlari asosida kredit, likvidlik va kapital risklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik va stress-test modellarida baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms; Principles for sound liquidity risk management and supervision. Bank for International Settlements.
2. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. 6th ed. John Wiley & Sons, 2023.
3. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Financial System Stability Assessment. IMF Country Report No. 25/145. 2025. DOI: 10.5089/9798229015103.002.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank nazorati va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha normativ-huquqiy va tahliliy materiallar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Capital adequacy and liquidity dynamics of the banking sector as of January 1, 2026. Toshkent, 2026.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Financial Stability Report for 2025. Toshkent, 2026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Financial Stability Report for the first half of 2025. Toshkent, 2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Non-performing loans of commercial banks as of January 1, 2025. Toshkent, 2025.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Liquidity dynamics of banking sector as of January 1, 2023–2025. Toshkent, 2024–2025.
10. Saunders A., Cornett M.M., Erhemjamts O. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. 10th ed. McGraw Hill, 2021.

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

95 yilligiga bag'ishlanadi

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI: GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI” FORUMI

“MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI”

Ilmiy elektron jurnal

(1-maxsus son)

To‘plamga kiritilgan ilmiy maqolalarda keltirilgan ma’lumotlar,
ilmiy qarashlar, xulosalar va tavsiyalarning mazmuni
hamda ishonchliligi uchun maqola mualliflari mas’uldir.

Mas'ul muharrir:
G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir:
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Sahifalovchi va dizayner:
Oloviddin Sobir o‘g‘li

“MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Tahririyat manzili: 100003, O'zbekiston
Respublikasi, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49 uy.